

## XATIRCHI TUMAN AHOLISINING O'ZGARISH DINAMIKASI

**Urokov Firdavs Ortikniyozovich**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasи assistenti*

**Qurvonboyeva Sevinch Asliddinovna**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Marketing" yo'nalishi talabasi*

---

### A R T I C L E I N F O.

---

**Kalit so'zlar:** aholi, aholi ko'payishi, demografik ko'rsatkichlar, hududiy maydonlar, tug'ilish va o'lim soni, migratsiya, imigratsiya, tabiiy o'sish.

---

### Annotatsiya

---

Ushbu maqolada Navoiy viloyatida joylashgan Xatirchi tumani aholi statikasi xususida tadqiqot olib boriladi. Shuningdek aholining tabiiy harakatlari, o'zgarish sur'atlari, yosh jihatdan tartibga olish va boshqa bir qancha ko'rsatkichlar qiyosiy tahlil qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.


---

### Kirish.

**Xatirchi tumani** — O'zbekiston Respublikasining<sup>1</sup> Navoiy viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. 1920—1921-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarkibidagi viloyat, 1922—1926-yillarda Karmana viloyatida uyezd, 1925—1926-yillarda Karmana uyezdining volosti, 1925—1926-yillarda Karmana uyezdining volosti. 1927—1930-yillarda Zarafshon okrugidagi tuman, 1938-yildan Samarqand viloyati, 1982-yildan Navoiy viloyati, 1989-yildan Samarqand viloyati, 1992-yildan Navoiy viloyati tarkibida. Shimolidan Nurota, janubi sharqdan Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, shimoli-sharqdan Qo'shrabot, janubidan (Zarafshon daryosi orqali) Narpay va Paxtachi tumanlari, g'arbdan Navoiy viloyatining Navbahor tumani bilan chegaradosh. Maydoni 1,37 ming km<sup>2</sup>. 2022-yilgi holatga ko'ra aholisi 207 ming kishidan ziyod<sup>[1]</sup>. Tumanda 1 shahar (Yangirabot), 1 shaharcha (Langar), 9 qishloq fuqarolari yig'ini (Bog'chakalon, Olchinobod, Oxunboboyev, Oqoltin, Po'lkan shoir, Xonaqa, Yangiyo'l, Krracha Mirdosh) bor. Markazi — Yangirabot shahri.

Tumanda 23 ta madaniyat uyi, 44 ta ommaviy kutubxona, 21 ta kino qurilma, 3 ta xalq muzeyi mavjud (1996-yilgi holatga ko'ra)

<sup>1</sup> "Hududlar kesimida aholi soni"



**1-rasm. Xatirchi tumani hududlar kesimida ko'rinishi.**

### Tahlil va natijalar.

2019-yil dekabr oyi holatiga ko'ra. Xatirchi tumani aholi soni 195,3 ming kishini tashkil etmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, shundan tug'ilganlar soni 5ming 4 nafarni tashkil etmoqda, shundan qiz bolalar soni 2ming 422 ta o'g'ilar bolalar soni esa 2ming 582 tani tashkil etmoqda. O'lganlar soni esa 851 nafarni tashkil etgan bo'lsa shundan ayollar soni 390 nafarni va Erkaklar soni esa 461 nafarni tashkil etmaoqda .


2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra Navoiy viloyati aholi sonining taqsimlanishi 539,8 ming kishi erkaklar (50,7%), 525,5 ming kishi (49,3%) ayollar hissasiga to'g'ri kelgan. Shundan, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar soni 31,0%, mehnatga layoqatli yoshdagilar 57,4% hamda mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 11,6%ni tashkil etadi.

### Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

Hududlar	2022- yil	2023-yil	O'sish surati , % da
Viloyat bo'yicha	1 044 063	1 065 322	102,0
<b>Shaharlar</b>			
Navoiy	153 251	158 495	103,4
Zarafshon	86 046	87 328	101,5
G'ozg'on	8 999	9 183	102,0
<b>tumanlar:</b>			
Karmana	134 004	137 246	102,4
Konimex	37 065	37 475	101,1
Qiziltepa	157 779	160 388	101,6
Navbahor	117 726	119 859	101,8
Nurota	87 190	88 772	101,8
Tomdi	15 671	15 735	100,4
Uchquduq	38 731	39 366	101,6
Xatirchi	207 601	211 475	101,9

Navoiy viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 9,6 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 0,2 kishiga ortgan (2022- yilning shu davrida 1 kv.km.ga 9,4 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahrida **4 365,0** kishi, Navoiy shahrida **2 641,7** kishi kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tomdi tumanida **0,4** kishi, Uchquduq tumanida **0,8** kishi, Konimex tumanatida **4,0** kishini tashkil etgan.




### Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2023-yil yanvar-iyun, kishi

2023-yilning yanvar-iyun oylarida 4712 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 9,0 promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning shu davriga nisbatan 0,1 promillega ko'payganligi kuzatildi. (2022-yilning yanvar-iyun oylarida 8,9 promille bo'lган)

2023-yilning yanvar -iyun oylarida 5689 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 10,8 promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning shu davriga nisbatan 1,9 promillega oshganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-iyun oylarida 8,9 promille bo'lган).

### Viloyat bo'yicha aholining tabiiy o'sishi koeffitsiyenti, promilleda



Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sish koeffitsiyentiga mos ravishda 20,9 promilleni tashkil qildi va 2022-yil yanvar-dekabr oylariga (21,2 promille) nisbatan 0,3 promillega kamayganini ko'rsatmoqda.

Xatirchi tumani bo'yicha 22,3 dan 21,4 promillega kamayish kuzatildi.

**Foydalanolgan adabiyotlar:**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xatirchi\\_tumani](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xatirchi_tumani)
2. <https://navstat.uz/uz/>
3. <https://stat.uz/uz/>.
4. <https://navstat.uz/uploads/Press-relizlar/2022/demo/Demo%20sentabr.pdf>.